

ABDURAUF FITRAT FAOLIYATIDA QADIMGI TURKIY ADABIYOTNING O'RNI

Karshiyeva Shoxsanam Abdurashidovna

GulDU tayanch doktoranti,

Tel. (+99899) 530 0301

E-mail: qarshiyeva1989@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20845589>

Annotatsiya: Ushbu maqolada qadimgi turkiy adabiyot, xususan, O'rxun-Enasoy obidalari, "Devon-u lug'otit turk", "Qutadg'u bilig" kabi yozma manbalarni o'rganish, o'qish, tushunish, tabdil qilish, nashr etish kabi ilmiy-amaliy faoliyatda Abdurauf Fitratning tutgan o'rni va muhim xizmatlari yuzasidan mulohazalar bildirilgan. Olimning mazkur yo'nalishdagi ilmiy-ijodiy ishlari, tadqiqotlari, nashr etilgan kitoblari va maqolalari, adabiy-ilmiy qarashlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Qadimgi turkiy adabiyot, Abdurauf Fitrat, O'rxun-Enasoy obidalari, "Devon-u lug'otit turk", "Qutadg'u bilig".

Abstract: This article discusses the role and significant contributions of Abdurauf Fitrat in the study of ancient Turkic literature, particularly in the scientific and practical activities of researching, reading, interpreting, transliterating, and publishing written sources such as the Orkhon-Yenisei inscriptions, Dīwān Lughāt al-Turk, and Kutadgu Bilig. The scholar's scientific and creative works in this field, his research, published books and articles, as well as his literary and scholarly views, are analyzed.

Keywords: Ancient Turkic literature, Abdurauf Fitrat, Orkhon-Yenisei inscriptions, Dīwān Lughāt al-Turk, Kutadgu Bilig.

Аннотация: В данной статье рассматриваются роль и значительный вклад Абдурауфа Фитрата в изучение древнетюркской литературы, в частности, его научно-практическая деятельность, связанная с исследованием, чтением, интерпретацией, транслитерацией и изданием письменных источников, таких как Орхон-Енисейские памятники, «Диван лугат ат-турк» и «Кутадгу билиг». Изучены научно-творческие работы ученого в данном направлении, его исследования, опубликованные книги и статьи, а также литературно-научные взгляды.

Ключевые слова: древнетюркская литература, Абдурауф Фитрат, Орхон-Енисейские памятники, «Диван лугат ат-турк», «Кутадгу билиг».

O'rxun-Enasoy yozma yodgorliklari qadimgi turkiy adabiyotning alohida bir qatlami va yo'nalishi sifatida turkiyshunoslikda nisbatan kam o'rganilgan. Qadimgi turkiy yozma yodgorliklarni noyob lingvomadaniy meros sifatida atroflicha o'rganish, zamonaviy tilga tabdil qilish, o'qish, tushunish, tushuntirish, sharhlash kabi tadqiqot ishlari olib borishda o'zbek filologiyasining ham o'z o'rni bor. O'zbek olimlaridan Abdurauf Fitrat, Olim Sharofiddinov, Aziz Qayumov, Alibek Rustamov, G'ani Abdurahmonov, Nasimxon Rahmonovlar ushbu mavzu yuzasidan salmoqli tadqiqot ishlari olib borishgan. Birinchi galda mazkur ko'hna bitiklar qadimgi turkiy tildan hozirgi o'zbek tiliga o'girilgan. Bu jihatdan Aziz Qayumov, G'ani Abdurahmonov, Alibek Rustamovlarning xizmatlari salmoqlidir. Quyida shular haqida fikr yuritimiz.

Abdurauf Fitrat – qadimgi turkiy yozma yodgorliklarning ilk tadqiqotchilaridan biri, tilshunos va adabiyotshunos olim. Fitrat haqidagi olim Abdurashid Abdurahmonovning quyidagi fikrlari ahamiyatli: "O'zbek adabiyotshunosligida turkiy adabiyotning antik davrini

belgilash masalasiga birinchilardan bo'lib professor Abdurauf Fitrat kirishgan edi. U "O'zbek adabiyoti namunalari" kitobida o'zbek adabiyotining dastlabki davrini "Qabilaviy adabiyot" deb hisoblaydi" [1,10]. Fitratning qadimgi turkiy yozma yodgorliklar tadqiqi yuzasidan qilgan xizmatlari "Eng eski turk adabiyoti namunalari" majmuasida yaqqol ko'zga tashlanadi. Fitrat Mahmud Koshg'ariyning "Devon-u lug'otit turk" asaridagi to'rtliklarga muayyan mantiqiy izchillikda tartib berib guruhlariga bo'lganligi, Alp Er To'nga marsiyasini tiklaganligi, to'rtliklar mazmunini lug'at va izohlar bilan yoritganligini alohida ta'kidlaydi. Mazkur tadqiqot ishi islomgacha bo'lgan va undan keyingi davr adabiyoti haqida tasavvur hosil qilishda muhim ahamiyat kasb etib, bu boradagi vazifasini bajarib kelmoqda. Abdurauf Fitrat 1927-yilda yozilgan "Eng eski turk adabiyoti namunalari" qo'llanmasida Mahmud Qoshg'ariyning "Devon-u lug'atit-turk" asaridagi adabiy parchalar, xususan, ikkilik va to'rtliklarni, 1928-yilda yozilgan "O'zbek adabiyoti namunalari" asarida esa qadimgi turkiy dostonlarni, O'rxun yozuvidagi asarlar va "Boburnoma"ni, shuningdek, "Qutadg'u bilig" asaridan 80 baytli parchani 1923-1928-yillar orasida ishlatilgan "Yangi alif" deb atalgan o'zbek tili talaffuziga moslashtirilgan arab alifbosiga asoslangan yozuvda nashr qilish orqali o'zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligi tarixi sohalari tadqiqiga o'zining munosib hissasini qo'shgan, deyish mumkin. Fitratning "O'zbek adabiyoti namunalari" asari haqida ko'plab ilmiy ishlarda ma'lumotlar berib kelingan bo'lsa-da, uning "Qutadg'u bilig"dan olingan 80 baytli matnini keyingi nashrlar bilan solishtirish yuzasidan ma'lumotlar berilmaganligini kuzatish mumkin. "Holbuki, Fitratning o'sha 1928-yildagi matn nashri, o'zidan oldingi H.Vamberi va V.Radlov yoki Fitratdan keyingi R.R.Arat (1947) va S.Y.Malov (1948, 1951) kabi olimlarning matn nashrlaridan ba'zi jihatlarida yanada mukammalroqdir [2, 7]. Mavzumizga aloqador yana bir muhim fakt shuki, Fitrat ilmiy asarlarining salmoqli qismi qadimgi turkiy yozma yodgorliklar xususidadir. Olimning qadimgi turkiy yozma adabiyotimiz tadqiqiga bag'ishlangan ilmiy izlanishlari birlamchiligi, keng qamrovliligi, ma'lumotlarga boyligi, izchil va aniqligi hamda o'ziga xos tahlil yo'nalishi bilan bugungi kun adabiyotshunosligi uchun poydevor vazifasini o'tab kelmoqda. Fitratning "Eng eski turk adabiyoti namunalari" kitobi tadqiqot, matn, lug'at va izohlardan tashkil topgan. Adabiyotshunos olim Uzoq Jo'raqulov o'zining "Fitrat qadim turk adabiyoti haqida" maqolasida yozadi: "Asarning tadqiqot qismida diqqatni tortadigan, bugun uchun ham o'z kuchini yo'qotmagan, bahs-munozaralarga boy fikrlar, ilmiy dalillar, qadim turkiy adabiyotiga mansub tekshirishlar joy olgan" [3,92].

Asarda Chig'atoy adabiy tili hatto hozirgi o'zbek tilining tag zamini Qoshg'ariy tasnifiga asos bo'lgan hoqoniy turkchasi ekani, adabiyot va til tarixini o'rganish uchun: "Chig'atoychaning onasi bo'lgan haligi adabiy shevagacha (hoqoniy turkchasigacha – izoh Fitratniki) borishga majbur" ekanligimiz ta'kidlanadi. Hoqoniy turkchasining tub ildizlarini O'rxun-Enasoy bitiklarida uchrashini ilova qiladi" [4,191]. Bu haqda Radlov va Samoylovichlar bilan asosli bahsga kirishib, haqli ravishda quyidagilarni ta'kidlaydi.

Xuddi shu singari turk olimi Fuod Kuprilizoda bilan "Alp Er To'nga" marsiyasi xususida ilmiy bahsga kirishgan Fitrat tadqiqotchining "marsiyani o'n ikki baytdan iborat" degan xulosasiga e'tirozan, uning o'n banddan tashkil topgani, turk tadqiqotchisi "marsiya"ga kiritgan ikki band mazmun, qofiya va vazn jihatidan marsiyaga uyg'un emasligini o'z ilmiy asoslari bilan isbotlab beradi. Shuningdek, Fitrat Kuprilizoda "Devon" tarkibidan ikkita ortiqcha marsiya chiqarganligini ham to'g'ri izohlaydi. U marsiya deb hisoblagan ikki asarning aslan boshqa maqomga ega ekanligini ta'kidlaydi.

Fitratning bunday ilmiy dalillash san'atini asar nusxasining yozilish davri xususidagi izlanishlarida ham kuzatish mumkin. Bu haqda aniq ma'lumotlar bo'lmaganiga qaramay, uning suls xati bilan yozilgani, kitobning eskiligi, yozuvning juda ham xiralashib ketganini hisobga olib, uyg'urcha nusxadan oldin yoki u bilan bir zamonda yozilgan, deya hukm chiqaradi [5,121]. Keyingi davrlarda yozilagan ishlarda ham bu kabi fikrlarning uchrashi Fitrat tadqiqotining qimmatini yanada oshiradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Абдурахмонов А. Туркий адабиётнинг қадимий даври. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. – Б. 10.
2. Темур Хўжа ўғли. Абдурауф Фитрат // “Туркология” журнали. 2020. 1-сон. – Б. 7.
3. Эски туркий тил битикларининг ўрганилиши: бажарилган ва бўлғуси ишлар. Конференция материаллари тўплами. –Тошкент, 2024. – Б. 92.
4. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 4-жилд. – Т.: Ма'naviyat, 2006. – Б. 119.
5. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 4-жилд. – Т.: Ма'naviyat, 2006. – Б. 121.
6. Абдурауф Фитрат. Энг эски турк адабиёти намуналари. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2008. (Нашрга тайёрловчи: Орзигул Ҳамроева).